

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.P.08.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NURULLAYEV FIRUZ FAYZILLOYEVICH

**O‘QUVCHILARNI KASBGA YO‘NALTIRISHNING PSIXOLOGIK
DETERMINANTLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on the
Psychological Sciences**

Nurullayev Firuz Fayzilloyevich

О'quvchilarni kasbga yo'naltirishning psixologik determinantlari..... 3

Нуруллаев Фируз Файзиллоевич

Психологические детерминанты профориентации учащихся.....28

Nurullaev Firuz Fayzilloyevich

Psychological determinants of career orientation of students 54

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 59

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.P.08.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NURULLAYEV FIRUZ FAYZILLOYEVICH

**O‘QUVCHILARNI KASBGA YO‘NALTIRISHNING PSIXOLOGIK
DETERMINANTLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/P1213 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «ZiyoNet» axborot- ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Jumayev Nodir Zayniddinovich**
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Ulug'ova Shahlola Musliddinovna**
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Atabayeva Nargis Batirovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot: **Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.P.08.10 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «28» avgust soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+0365) 221-29-14; faks: (+0365) 221-27-57; email: buxdu.rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. 2/021 raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+0365) 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «8» avgust kuni tarqatildi.
(2026-yil «8» avgust dagi 46 - raqamli reyestr bayonnomasi).


Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
M. Nazarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc),
dotsent
Sh. Rustamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya
fanlari doktori (DSc), professor
A.A. Xuseynova

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda o'quvchilarning kasbiy shakllanishi uchun zarur psixologik shart-sharoitlarni yaratish, ularning kasbiy o'zini anglashi va psixologik farovonligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. World Bank Education Global Practice (2022) tahlillarida mehnat bozoridagi nomutanosibliklarning 30-35 foizi yoshlarning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlariga mos kelmaydigan kasblarni tanlashi bilan bog'liqligi qayd etilgan. Jahonda ta'lim taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan xalqaro konsepsiyalarda «...bilimning mustahkam poydevoriga ega bo'lish, o'quvchilarning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish orqali kasbga yo'naltirish» dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu jihatdan, o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning psixologik determinantlarini aniqlash, ularda kasbiy yetuklik, kasbiy moslashuvchanlik va kelajakdagi faoliyatga zarur psixologik salohiyatni shakllantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda¹.

Jahon ilmiy-tadqiqot markazlari va ta'lim muassasalarida o'quvchilarning o'z qobiliyat va imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishi, o'zini o'zi determinatsiyalashi, kasbiy faoliyatga nisbatan ehtiyoj va motivlarning shakllanishi hamda ongli kasbiy tanlovni amalga oshirish mexanizmlarini o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. International Labour Organization (ILO)ning 2023-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, ishga joylashishda muvaffaqiyatga erishgan yoshlarning 72 foizi maktab yoki kollej davrida kasbiy yo'naltirish bo'yicha psixologik xizmatlardan foydalanganligi qayd etilgan. Ayniqsa, shaxsning kasbni ongli ravishda tanlashi va kasbiy istiqbolini to'g'ri belgilashiga ta'sir ko'rsatuvchi motivatsion-regulyativ, kognitiv, refleksiv, ijtimoiy hamda emotsional determinantlarning o'zaro ta'sirini kompleks o'rganish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi².

Respublikamizda so'nggi yillarda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish, yoshlarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish va ularni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kasblarga yo'naltirish masalalariga davlat siyosati darajasida katta e'tibor qaratilmoqda, shu maqsadda kasbga o'rgatish va kasbiy tayyorgarlik markazlari faoliyati kengaytirilmoqda. Mazkur jarayon, eng avvalo, kadrlar salohiyatini rivojlantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning kasbiy tayyorgarligi hamda kasb tanlashga munosabatini jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot talablari asosida shakllantirishni taqozo etadi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda turli kasblar haqidagi bilim va tasavvurlarni kengaytirish, ularni kasb-hunarga yo'naltirish, kasbiy qiziqish va motivlarni barqarorlashtirish, shuningdek, ijtimoiy-innovatsion jarayonlarga moslashish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, o'quvchilarda o'zini o'zi nazorat qilish, mustaqil qaror qabul qilish, mas'uliyatlilik hamda kasbiy kelajagini ongli ravishda rejalashtirish kabi psixologik xususiyatlarni rivojlantirish kasbga yo'naltirish samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda³.

¹ <https://www.worldbank.org/en/topic/education>

² <https://www.ilo.org/>

³ <https://lex.uz/docs/-5512119>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2018-yil 27-iyuldagi PF-5466-son «Yoshlar - kelajagimiz» Davlat dasturi to'g'risida»gi, 2021-yil 21-apreldagi PF-6208-son «Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2018 yil 21 sentyabrdagi PF-5544-son «2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonlari, 2017 yil 28 iyuldagi PQ-3160-sonli Qarori «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 dekabrdagi 792-sonli «Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 9-11-sinflari o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda kasbiy tasavvurlarni shakllantirish, ularni kasb-hunarga yo'naltirish, kasbiy qiziqish va moyilliklarni rivojlantirish hamda kasb tanlashga psixologik tayyorlash masalalari O'zbekiston olimlaridan A.Abdullayev, Z.Abdurahmonova, R.Asomova, Y.Asadov, H.Bekmurodov, U.Jumayev, E.Muxtorov, N.Zaretdinova, S.Otamuratov, G.Ochilova, U.Sultonov, O.To'ychiyev, K.Qodirov, Q.Qobulov, N.Qosimova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan Y.Borisova, A.N.Leontev, Y.A.Klimov, I.M.Kondakov, A.K.Markova, R.S.Nemov, A.B.Orlov, Y.M.Orlov, S.L.Rubinshteyn, B.S.Ilin, I.V.Imedadze, V.I.Kovalev, A.Freydlar va boshqalar tomonidan kasbiy yo'nalganlik, kasb tanlash motivlari, shaxsning kasbiy o'zini anglashi, faoliyatga tayyorligi hamda individual-psixologik xususiyatlarning kasbiy tanlovga ta'siri bilan bog'liq masalalar tadqiq etilgan.

Xorijiy olimlardan A.Adler, A.Bandura, E.Bern, E.Desi, J.Kelli, A.Maslou, J.Mid, X.Murrey, G.Ollport, R.Rayan, K.Rojers, V.Frankl, E.Fromm, A.Ellis, K.Yung va boshqalarning tadqiqotlarida shaxs ehtiyojlari va motivlarining kasbiy tanlovdagi o'rni, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'zini o'zi determinatsiyalash, kasbiy qobiliyatlarni namoyon etish hamda shaxsiy rivojlanishning psixologik mexanizmlari ilmiy jihatdan o'rganilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlar bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-202005236-raqamli «Oila psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotlarini yaratish» nomli innovatsion loyihasi doirasida bajarilgan (2021-2022 yy.).

Tadqiqotning maqsadi o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning psixologik determinantlarini tadqiq qilish asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'quvchilarni kasbga yo'naltirishga ta'sir etuvchi pedagogik-psixologik omillarni aniqlashtirish;

o'quvchilarda kasb tanlashga psixologik omillarning ta'siri natijasida kasbiy tiplarning yoshga oid farqlari mavjudligini dalillash;

kasb tanlashga pedagogik-psixologik omillarning ta'siri natijasida «ichki individual ahamiyatga ega motivlar», «ichki ijtimoiy ahamiyatga ega motivlar», «tashqi ijobiy motivlar» hamda «tashqi salbiy motivlar» kabi omillarning shaxs tiplari darajasi bilan bog'liqligini isbotlash;

o'quvchilar kasb tanlash motivlariga shaxs yo'nalganlik darajasini ta'sirini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning psixologik determinantlari belgilangan bo'lib, tadqiqotga Buxoro viloyati Buxoro shahridagi 19-son maktabning 130 nafar, Samarqand viloyati Samarqand shahridagi 10-son maktabning 100 nafar hamda Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 32-maktabning 90 nafar, jami, 320 nafar o'quvchilar respondentlar sifatida jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning psixologik determinantlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kuzatish, suhbat metodlari, shuningdek, Y.Xollandning «Shaxs tiplari va ularga mos kasblarni aniqlash» metodikasi, V.Smekal va M.Kucheralarning «Shaxs yo'nalganligini aniqlash metodikasi», I.M.Kondakovning «Kasbiy ustanovkalarni aniqlash» metodikasi, R.V.Ovcharovanning «Kasb tanlash motivlari» metodikasi hamda «O'quvchilarni kasbga yo'naltirishni aniqlovchi psixologik so'rovnomasi» (N.Z. Jumayev hamda F.F. Nurullayev)dan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Studentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti, faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda realistik tipdagi o'quvchi o'z ichki individual imkoniyatlarini hisobga olishi, intellektual va konvensional tip egalarida ichki ijtimoiy motivlar, tadbirkor va kreativ tipdagi shaxslarda esa tashqi ijobiy motivlarning dominant ekanligiga asoslanib, kasb tanlash motivlarining shaxs tipologiyasiga integrativ namoyon bo'lishi muhim psixologik determinant ekanligi isbotlangan;

o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda shaxsning o'ziga va o'z imkoniyatlariga yo'nalganligi ichki individual va ijtimoiy motivlar, faoliyatga yo'nalganlik esa tashqi ijobiy motivatsiyani kuchaytirganligiga asoslanib, kasb tanlashdagi dominant motivlarning shaxs tipologik orientatsiyasiga integrativ namoyon bo'lishi psixologik determinant sifatida isbotlangan;

o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda shaxsning ichki individual ahamiyatga ega kasb tanlash motivatsiyasining optimizm, ichki ijtimoiy motivlarning o'z imkoniyatlarini baholash, tashqi ijobiy motivatsiyaning esa ratsional pozitsiya bilan

uyg'un namoyon bo'lishiga asoslanib, professional ustanovkalarining kognitiv, ijtimoiy, emotsional attityudlari orqali rivojlantirish muhimligi aniqlangan;

o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ierarxik modeli kasbiy tasavvurlar, professional ustanovkalar va qiziqishlarni aniqlash muhimligi tufayli, profdiagnostika blokini kasbiy tayyorgarlikni prognozlash bloki bilan uzluksiz monitoring va feedback orqali integratsiyalash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'quvchilarning kasb tanlashi, kasbiy faoliyatning shaxs individual xususiyatlariga muvofiqligi, kasbiy tiplar va shaxs yo'nalganligiga oid ilmiy adabiyotlar tahlili asosida ishlab chiqilgan tadqiqot dasturi diagnostik amaliyotda qo'llanilgan;

o'quvchilarning kasb tanlashiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni hisobga olish orqali ularda mustaqil va ongli kasbiy qaror qabul qilish darajasini oshirishga erishilgan;

o'quvchilarning kasbiy yo'nalganligini rivojlantirish hamda tanlangan kasbga nisbatan barqaror munosabatini shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan psixologik trening mashg'ulotlari amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, ma'lumotlarning reprezentativligi, empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan ko'rsatkichlarning ishonchli, ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi, natijalar «Ms Excel», «SPSS 22.0» dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'quvchilarda kasb tanlash motivatsiyasining shakllanishiga doir ilmiy tushuncha va yondashuvlarni boyitish, mazkur yo'nalishda keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy asos yaratish, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kasbiy tiplarni aniqlash, o'smirlarda kasbiy yo'nalganlikning namoyon bo'lish xususiyatlarini o'rganish hamda kasbiy shakllanish mezonlarini ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalardan o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning psixologik determinantlarini o'rganishga qaratilgan pedagogik va psixologik jarayonlarda, ta'lim tashkilotlari faoliyatida, kasb tanlashga yo'naltiruvchi davlat organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik samaradorligini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan ilmiy asoslangan psixologik xizmat tizimini tashkil etishda, «Pedagogik psixologiya», «Kasb psixologiyasi», «Rivojlanish psixologiyasi», «Ontogenez psixologiyasi», «Psixologik maslahat va psixokorreksiya» fanlari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda hamda psixologik lug'atlar mazmunini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: «O'quvchilarni kasbga

yo‘naltirishning psixologik determinantlari» yuzasidan o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda realistik tipdagi o‘quvchilarning o‘z ichki individual imkoniyatlarini hisobga olishi, intellektual va konvensional tip egalarida ichki ijtimoiy motivlar, tadbirkor va kreativ tipdagi shaxslarda esa tashqi ijobiy motivlarning dominant ekanligiga asoslanib, kasb tanlash motivlarining shaxs tipologiyasiga integrativ tarzda namoyon bo‘lishi muhim psixologik determinant ekanligi isbotlanganligiga oid takliflar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-384-son buyrug‘i bilan «Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-384a-son ma‘lumotnomasi). Natijada o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishga ta’sir etuvchi pedagogik-psixologik omillar aniqlashtirilgan;

o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda shaxsning o‘ziga va o‘z imkoniyatlariga yo‘nalganligi ichki individual va ijtimoiy motivlarni, faoliyatga yo‘nalganlik esa tashqi ijobiy motivatsiyani kuchaytirganligiga asoslanib, kasb tanlashdagi dominant motivlarning shaxs tipologik orientatsiyasiga integrativ tarzda namoyon bo‘lishi psixologik determinant sifatida isbotlanganligiga oid ma‘lumotlar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-384-son buyrug‘i bilan «Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-384a-son ma‘lumotnomasi). Natijada o‘quvchilarning kasb tanlashiga ta’sir etuvchi psixologik omillar hamda kasbiy tiplarning yoshga oid farqlari aniqlashtirilgan;

o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda shaxsning ichki individual ahamiyatga ega kasb tanlash motivatsiyasining optimizm, ichki ijtimoiy motivlarning o‘z imkoniyatlarini baholash, tashqi ijobiy motivatsiyaning esa ratsional pozitsiya bilan uyg‘un namoyon bo‘lishiga asoslanib, professional ustanovkalarni kognitiv, ijtimoiy va emotsional attityudlar orqali rivojlantirish muhimligi aniqlanganligiga oid ma‘lumotlar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-384-son buyrug‘i bilan «Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-384a-son ma‘lumotnomasi). Natijada kasb tanlashga ta’sir etuvchi «ichki individual ahamiyatga ega motivlar», «ichki ijtimoiy ahamiyatga ega motivlar», «tashqi ijobiy motivlar» hamda «tashqi salbiy motivlar»ning shaxs tiplari bilan bog‘liqligiga oid ma‘lumotlar tizimlashtirilgan;

o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning ierarxik modeli kasbiy tasavvurlar, professional ustanovkalar va qiziqishlarni aniqlash muhimligidan kelib chiqib, profdiagnostika blokini kasbiy tayyorgarlikni prognozlash bloki bilan uzluksiz monitoring va feedback mexanizmi orqali integratsiyalash asosida

takomillashtirilganligiga oid ilmiy yangilik Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-384-son buyrug'i bilan «Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-384a-son ma'lumotnomasi). Natijada o'quvchilarning kasb tanlash motivlariga shaxs yo'nalganlik darajasining ta'sirini baholash imkoniyati kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, shundan 2 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 135 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYASINING ASOSIY MAZMUNI

«**Kirish**» qismda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalar belgilangan, tadqiqotning metodlari, obyekti va predmeti ko'rsatilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotda tadbiq etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertatsion ishning tuzilishi yuzasidan ma'lumot keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning nazariy konseptual asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish muammosining psixologik tadqiqotlarda o'rganilganlik holati, kasb tanlash motivatsiyasi shakllanishining nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Mazkur muammoning ilmiy-nazariy jihatlarini yoritish maqsadida xorijiy psixologiya maktablari vakillari, MDH mamlakatlari hamda mamlakatimiz psixolog olimlarining tadqiqotlari o'rganilgan.

O'zbekiston olimlaridan R.B.Abduraxmanova, Y.M.Asadov, R.Z.Asomova, Sh.R.Baratov, A.A.Beknazarov, M.G.Davletshin, D.G.Muxamedova, Z.T.Nishanova, A.A.Zakirov, E.G'oziyev va boshqalar o'quvchilarda kasb tanlash motivatsiyasini shakllantirish, kasbiy motivlarning rivojlanishi hamda ushbu jarayonga ta'sir etuvchi psixologik komponentlarni aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

MDH mamlakatlari olimlaridan S.A.Cherkasova, S.P.Jdanova, T.A.Kazanseva, E.A.Klimov, Y.V.Melnik, R.V.Ovcharova, A.V.Petrovskiy, A.P.Rojkova, V.K.Shayaxmetova, O.Yu.Shevchenko va boshqalar o'quvchilarning

kasbiy o'zini anglashi, o'quv-kasbiy ustanovkalari, kasbiy yo'nalganligi hamda muhim kasbiy-shaxsiy sifatlarning shakllanishiga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borganlar.

Xorijiy olimlardan J.Holland, P.Berger, T.Lukman, L.B.Shneyder, J.Mid, X.Murrey, G.Ollport, R.Rayan va boshqalarning tadqiqotlarida kasbiy munosabatlar tizimini tahlil qilish, kasbiy tanlov va konsultatsiya jarayonlarining shaxs xususiyatlari bilan bog'liqligi, shuningdek, individual-psixologik sifatlarning kasbiy yo'nalganlikka ta'siri masalalari yoritilgan.

Dissertatsiyaning «**O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning empirik asoslari**» deb nomlangan ikkinchi bobi o'rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi, olingan natijalarning tahliliga asoslangan korrelyatsion bog'lanishlar izohi o'z aksini topgan.

Dastlab R.V.Ovcharovanning «Kasb tanlash motivlari» metodikalari orqali olingan natijalar tahliliga o'tamiz.

1- jadval.

«Kasb tanlash motivlari» metodikasi orqali olingan dastlabki natijalar tahlili (n=320)

Omillar	O'rtacha (M)		Farqlar
	9-sinf (n=170)	11-sinf (n=150)	t
Ichki individual ahamiyatga ega motivlar	4,7	2,3	-2,4*
Ichki ijtimoiy ahamiyatga ega motivlar	2,6	4,8	-2,2*
Tashqi ijobiy motivlar	2,2	4,5	-2,3*
Tashqi salbiy motivlar	4,3	2,1	-2,2*

Izoh: * $p \leq 0,05$.

Metodikaning «ichki individual ahamiyatga ega motivlar» omili bo'yicha 9-sinf o'quvchilarida yuqori natijalar aniqlandi ($t=2,4$; $p \leq 0,05$). Mazkur ko'rsatkich ularning kasb tanlash qarorlarini ichki qiziqishlar, shaxsiy ehtiyojlar va o'zini anglashga intilish bilan bog'layotganini ko'rsatadi. Bu bosqichda o'quvchilar o'z qobiliyatlari va psixologik resurslarini tahlil qilib, kasbiy tanlovda shaxsiy ahamiyatga ega sabablarni ustuvor deb biladilar. Ichki motivatsiyaning faolligi bilim olishga ijobiy munosabatni kuchaytirib, kelajakdagi kasbiy faoliyatda o'zini o'zi ro'yobga chiqarish ehtiyojini shakllantiradi. Shu bois, kasbiy tanlov mustaqil qaror sifatida namoyon bo'lib, o'z ustida ishlashga yo'nalganlik bilan tavsiflanadi.

«Ichki ijtimoiy ahamiyatga ega motivlar» omili bo'yicha 11-sinf o'quvchilarida yuqori natijalar kuzatildi ($t=2,2$; $p \leq 0,05$). Bu holat ularning kasb tanlashida ijtimoiy qadriyatlar, jamiyatga foydali bo'lish istagi va mas'uliyat hissi muhim o'rin tutishini anglatadi. Mazkur bosqichda shaxsiy manfaatlar bilan jamoaviy ehtiyojlarni uyg'unlashtirishga intilish kuchayib, kasbiy qarorlar ijtimoiy va gumanistik

qadriyatlarga tayana boshlaydi. 11-sinf o'quvchilari kasbiy tanlovni jamiyatda o'z o'rini topish bilan bog'laydilar, bu esa ijtimoiy identifikatsiyaning kuchayganidan dalolat beradi. Shu sababli, kasbga yo'naltirish ishlarida ijtimoiy motivatsiyani mustahkamlovchi psixologik yondashuvlardan foydalanish muhimdir.

Metodikaning «tashqi ijobiy motivlar» omili bo'yicha ham 11-sinf o'quvchilarida yuqori natijalar qayd etildi ($t=2,3$; $p \leq 0,05$). Bu ularning kasb tanlashda tashqi rag'bat, ijobiy baholanish va ijtimoiy maqomga erishishga katta ahamiyat berayotganini ko'rsatadi. Yuqori sinf o'quvchilarining hayotiy tanlovlarni ijtimoiy kontekstda baholashi kuchaygani sababli, mazkur motivlar ularning o'zini o'zi baholash tizimiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan, kasbga yo'naltirish jarayonida tashqi ijobiy rag'batlantirish mexanizmlaridan maqsadli foydalanish zarur.

Metodikaning «tashqi salbiy motivlar» omili bo'yicha 9-sinf o'quvchilarida yuqori natijalar kuzatildi ($t=2,2$; $p \leq 0,05$). Mazkur holat kasbiy tanlovning ayrim vaziyatlarda tahdid, qo'rquv, bosim va salbiy oqibatlardan qochish istagi bilan bog'liq shakllanishini ko'rsatadi. Bu yoshdagi o'quvchilarda mustaqil kasbiy qaror qabul qilish ko'nikmalari yetarlicha shakllanmagani sababli, atrofdagilarning talablari va tazyiqlariga moyillik yuqori bo'lishi mumkin. Salbiy motivlar asosidagi kasbiy tanlov keyinchalik kasbiy qoniqmaslik va psixologik noqulaylikni yuzaga keltirishi ehtimoli mavjud. Shu bois, kasbga yo'naltirish jarayonida individual yondashuv, psixologik qo'llab-quvvatlash va konstruktiv motivatsiyani shakllantirishga ustuvor ahamiyat berish lozim.

Navbatdagi bosqichda R.V.Ovcharova «Kasb tanlash motivlari» hamda Y.Xollandning «Shaxs tiplari va ularga mos kasblarni aniqlash» metodikasi omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahliliga o'tamiz.

2-jadval.

«Kasb tanlash motivlari» hamda «Shaxs tiplari va ularga mos kasblarni aniqlash» metodikasi omillari o'rtasidagi aloqadorlik ($n=320$)

Omillar	Ichki individual ahamiyatga ega motivlar	Ichki ijtimoiy ahamiyatga ega motivlar	Tashqi ijobiy motivlar	Tashqi salbiy motivlar
Realistik tip	0,37*	0,11	0,16	0,18
Intellektual tip	0,16	0,33*	0,17	0,12
Ijtimoiy tip	0,11	0,15	0,13	-0,37*
Konvensial (shartli) tip	0,15	0,38*	0,18	0,15
Tadbirkorlik tipi	0,19	0,14	0,30*	0,12
Artistik (kreativlik) tip	0,07	0,13	0,34*	0,16

Izoh: * $p \leq 0,05$.

«Ichki individual ahamiyatga ega motivlar» bilan «realistik tip» o'rtasida ($r=0,37$; $p \leq 0,05$) ijobiy bog'lanish mavjud. Bu holat o'quvchilarning ichki

ehtiyojlari kasb tanlashda real va amaliy faoliyat turlariga ustuvorlik berishini ko'rsatadi. Realistik yo'nalishdagi kasblar, jumladan, texnika, qurilish va mexanika sohaları ko'proq amaliy faoliyatga moyil shaxslar tomonidan tanlanadi. O'z qiziqishlari, qadriyatlari va mustaqil qarorlariga tayangan o'quvchilar real muhitda o'z imkoniyatlarini namoyon etishga intiladilar. Bu bog'lanish ichki motivatsiya bilan kasbiy tipologiya o'rtasidagi uyg'unlikni ifodalab, ongli kasbiy identifikatsiya va ijtimoiy moslashuvning shakllanishiga xizmat qiladi.

Tahlil natijalariga ko'ra, «ichki ijtimoiy ahamiyatga ega motivlar» bilan «intellektual tip» o'rtasida ($r=0,33$; $p\leq 0,05$) ijobiy bog'lanish aniqlangan. Bu bog'liqlik o'quvchilarning kasbiy tanlovi ijtimoiy foyda bilan bir qatorda intellektual izlanish va ilmiy faoliyatga qiziqish bilan bog'liqligini anglatadi. Intellektual tip vakillari murakkab muammolarni tahlil qilish, nazariy bilimlarni egallash va chuqur fikrlashga moyil bo'ladilar. Ular kasbiy tanlovda nafaqat o'zini anglashga, balki boshqalarga foydali bo'lish ehtiyojiga ham tayanadilar. Shu sababli, ularda ijtimoiy yo'nalganlik va intellektual faollik uyg'unligi maqsadga yo'naltirilgan kasbiy strategiyani shakllantiradi.

«Ichki ijtimoiy ahamiyatga ega motivlar» bilan «konvensional tip» o'rtasida ($r=0,38$; $p\leq 0,05$) ijobiy bog'lanish mavjud. Konvensional tip vakillari qoidalarga rioya qilish, tartibli faoliyat yuritish hamda an'anaviy tashkiliy tuzilmalarga moslashish xususiyatlari bilan ajralib turadilar. Ularning ichki ijtimoiy qadriyatlari mehnat tartibi, ijtimoiy rollarga moslashish va barqarorlikka intilish bilan uyg'unlashadi. Shu bois, ular kasbiy tanlovda tartib va aniqlik talab etadigan faoliyat turlariga ko'proq moyillik bildiradilar. Mazkur bog'lanish ichki ijtimoiy motivatsiyaning konvensional tipga xos kasbiy rollarni tanlashga yordam berishini ko'rsatadi.

«Tashqi ijobiy motivlar» bilan «tadbirkorlik tipi» o'rtasida ($r=0,30$; $p\leq 0,05$) ijobiy bog'lanish aniqlangan. Bu natija o'quvchilarning shuhrat, moddiy manfaat, maqom va muvaffaqiyat kabi tashqi rag'batlar asosida kasb tanlashga moyilligini ko'rsatadi. Tadbirkorlik tipi vakillari tashabbuskorlik, faollik, tavakkalchilik va liderlik sifatleri bilan tavsiflanadi. Ular kasbiy faoliyat orqali ijtimoiy maqom va tan olinishga erishishga intiladilar. Shu sababli, bunday o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda biznes loyihalari, amaliy mashg'ulotlar va liderlik treninglaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

«Tashqi ijobiy motivlar» bilan «artistik tip» o'rtasida ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) ijobiy bog'lanish mavjud. Bu holat ijodkor o'quvchilarning kasb tanlashda tan olinish, e'tirof va estetik qoniqishga intilishini ko'rsatadi. Artistik tipdagi shaxslar san'at, dizayn, adabiyot va musiqa kabi sohalarda o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga moyil bo'ladilar. Ular tashqi ijobiy rag'batlar orqali o'z his-tuyg'ulari va ijodiy imkoniyatlarini jamiyatga namoyon etishga intiladilar. Shu bois, kasbga yo'naltirishda ularning ijodiy ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlovchi estetik va emotsional muhit yaratish muhimdir.

«Tashqi salbiy motivlar» bilan «ijtimoiy tip» o'rtasida teskari bog'lanish aniqlangan ($r=-0,37$; $p\leq 0,05$). Bu holat tashqi bosim, qo'rquv yoki salbiy baholardan qochish istagi bilan kasb tanlayotgan o'quvchilarda empatiya, hamkorlik va

gumanistik yo‘nalganlikning sustroq namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Bunday o‘quvchilar kasbni ijobiy ijtimoiy rol sifatida emas, balki salbiy oqibatlardan qochish vositasi sifatida qabul qilishlari mumkin. Shu sababli, kasbga yo‘naltirish jarayonida ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirish, ijobiy motivatsiyani kuchaytirish va qo‘llab-quvvatlovchi psixologik muhit yaratish muhim hisoblanadi.

Demak, R.V.Ovcharovanning «Kasb tanlash motivlari» hamda V.Smekal va M.Kucheralarning «Shaxs yo‘nalganligini aniqlash» metodikasi omillari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar tahliliga o‘tamiz.

3-jadval.

«Kasb tanlash motivlari» hamda «Shaxs yo‘nalganligini aniqlash» metodikasi omillari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar tahlili (n=320)

Omillar	Ichki individual ahamiyatga ega motivlar	Ichki ijtimoiy ahamiyatga ega motivlar	Tashqi ijobiy motivlar	Tashqi salbiy motivlar
O‘ziga yo‘nalganlik	0,34*	0,31*	0,11	0,10
Odamlarga yo‘nalganlik	0,13	0,12	0,14	0,15
Faoliyatga yo‘nalganlik	0,18	0,17	0,37*	-0,33*

Izoh: * $p \leq 0,05$.

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, «ichki individual ahamiyatga ega motivlar» bilan «o‘ziga yo‘naltirilganlik» omili o‘rtasida ($r=0,34$; $p \leq 0,05$) ijobiy bog‘lanish mavjudligi aniqlangan. Bu holat o‘z ehtiyojlari, manfaatlari va hayotiy qadriyatlarini anglaydigan o‘quvchilarning kasb tanlashda mustaqil qaror qabul qilishga moyilligini ko‘rsatadi. Ularning kasbiy tanlovda tashqi ta’sirlardan ko‘ra shaxsiy qiziqish, ichki intilish va hayotiy maqsadlar ustuvor o‘rin egallaydi. Shu sababli, kasbga yo‘naltirish jarayonida bunday o‘quvchilarga erkin tanlov imkoniyatini yaratish va shaxsiy qadriyatlariga mos faoliyat turlariga jalb etish muhimdir. Mazkur bog‘lanish kasbiy tanlovda shaxsiy resurslarni anglash va individual imkoniyatlarga mos yo‘nalishlarni belgilash zarurligini ko‘rsatadi.

«Ichki ijtimoiy ahamiyatga ega motivlar» bilan «o‘ziga yo‘naltirilganlik» omili o‘rtasida ($r=0,31$; $p \leq 0,05$) ijobiy bog‘lanish aniqlangan. Bu o‘quvchilarning jamiyatga foydali bo‘lishga intilishi ularning shaxsiy qadriyatlari va ichki pozitsiyalari bilan uzviy bog‘liqligini anglatadi. Mazkur holatda o‘ziga yo‘naltirilganlik shaxsiy manfaatlarni ustun qo‘yish emas, balki ijtimoiy mas’uliyatni ongli ravishda qabul qilishni ifodalaydi. Bunday o‘quvchilar boshqalarning ehtiyojlarini shaxsiy maqsadlari bilan uyg‘unlashtira oladilar. Shu bois, kasbga yo‘naltirishda ijtimoiy loyihalar va ko‘ngillilik faoliyatidan foydalanish ularning ongli kasbiy tanlovini mustahkamlashi mumkin.

«Tashqi ijobiy motivlar» bilan «faoliyatga yo'naltirilganlik» o'rtasida ($r=0,37$; $p\leq 0,05$) ijobiy bog'lanish kuzatilgan. Bu holat kasb tanlashdagi obro', moddiy manfaat va muvaffaqiyat kabi tashqi rag'batlarning amaliy faoliyatga bo'lgan ehtiyoj bilan uyg'unlashganini ko'rsatadi. Faoliyatga yo'naltirilgan o'quvchilar o'z imkoniyatlarini amaliy harakat orqali namoyon etib, kasbiy qarorlarida natijadorlik va samaradorlikka ustuvor ahamiyat beradilar. Shu sababli, ular bilan amaliy loyihalar va faoliyatga asoslangan treninglardan foydalanish samarali hisoblanadi. Mazkur bog'lanish tashqi rag'batlarning faoliyatga undovchi psixologik omil sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, «tashqi salbiy motivlar» bilan «faoliyatga yo'naltirilganlik» o'rtasida ($r=-0,33$; $p\leq 0,05$) salbiy bog'lanish aniqlangan. Bu kasb tanlashda qo'rquv, majburiyat, jazodan qochish yoki tashqi bosimga tayangan o'quvchilarda faoliyatga yo'naltirilganlik darajasi pastroq bo'lishini anglatadi. Bunday motivatsiya passivlik, ishtiyoqsizlik va kasbiy faoliyatga nisbatan befarqlikni kuchaytirishi mumkin. Natijada o'quvchi faoliyatni o'zini namoyon etish vositasi sifatida emas, balki salbiy oqibatlardan qochish usuli sifatida qabul qiladi. Shu bois, tashqi salbiy motivatsiyani kamaytirish va ichki hamda ijobiy motivlarni rivojlantirish kasbga yo'naltirishning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

4-jadval.

«Kasb tanlash motivlari» hamda «Kasbiy ustanovkani aniqlash metodikasi savolnomasi» omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahlili (n=320)

Omillar	Ichki individual ahamiyatga ega motivlar	Ichki ijtimoiy ahamiyatga ega motivlar	Tashqi ijobiy motivlar	Tashqi salbiy motivlar
Qat'iyatsizlik	0,15	0,16	0,09	-0,33*
Ratsionallik	0,12	0,15	0,38*	0,19
Optimizm	0,36*	0,17	0,16	0,15
O'z imkoniyatlarini baholash	0,17	0,32*	0,15	0,11
Boshqalarga bog'liqlik	0,11	0,19	0,31*	0,08

Izoh: * $p\leq 0,05$.

«Ichki individual ahamiyatga ega motivlar» bilan «optimizm» o'rtasida ($r=0,36$; $p\leq 0,05$) ijobiy bog'lanish aniqlangan. Bu kasb tanlashda o'z ehtiyojlari, qiziqishlari va qadriyatlarini ustuvor deb biladigan o'quvchilarning kelajakka ishonch bilan qarashini ko'rsatadi. Optimistik qarashlar kasbiy o'zlikni shakllantirish, tanlangan yo'nalishda qat'iylik ko'rsatish va qiyinchiliklarni yengib o'tishda muhim psixologik omil hisoblanadi. Ichki motivatsiya va optimizmning

uyg'unligi o'quvchilarning kasbiy qaror qabul qilishga psixologik tayyorgarligini kuchaytiradi. Shu bois, kasbga yo'naltirish jarayonida ularning kelajak imkoniyatlariga ishonchini qo'llab-quvvatlash muhimdir.

«Ichki ijtimoiy ahamiyatga ega motivlar» bilan «o'z imkoniyatlarini baholash» o'rtasida ($r=0,32$; $p\leq 0,05$) ijobiy bog'lanish mavjud. Bu o'quvchilarning jamiyatga foydali bo'lish istagi o'z salohiyatini real baholash qobiliyati bilan uyg'unlashganini bildiradi. Ichki ijtimoiy motivatsiya boshqalarga yordam berish, ijtimoiy mas'uliyat va foydali faoliyatga intilishni kuchaytiradi. O'z imkoniyatlarini obyektiv baholash esa kasbiy yo'nalishni oqilona rejalashtirish imkonini beradi. Shu sababli, bunday o'quvchilar bilan refleksiv mashg'ulotlar, salohiyat tahlili va SWOT tahlilidan foydalanish samarali hisoblanadi.

«Tashqi ijobiy motivlar» bilan «ratsionallik» omili o'rtasida ($r=0,38$; $p\leq 0,05$) ijobiy bog'lanish aniqlangan. Mazkur natija moddiy manfaat, ijtimoiy maqom va tan olinish kabi tashqi rag'batlarga yo'nalgan o'quvchilarning kasbiy tanlovda mantiqiy va oqilona fikrlashga tayanishini ko'rsatadi. Ratsionallik muqobil variantlarni tahlil qilish, ularni taqqoslash va maqbul qarorni tanlashga imkon beradi. Tashqi ijobiy motivatsiya esa kasbiy maqsadlar sari izchil harakat qilishga turtki bo'ladi. Shu bois, kasbga yo'naltirishda kasblar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish, mutaxassislar bilan muloqot va mehnat bozori tendensiyalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

«Tashqi ijobiy motivlar» bilan «boshqalarga bog'liqlik» omili o'rtasida ($r=0,31$; $p\leq 0,05$) ijobiy bog'lanish mavjud. Bu o'quvchilarning kasb tanlashda otana, ustoz va tengdoshlarning fikr hamda maslahatlariga sezilarli darajada tayanishini ko'rsatadi. Bunday holatda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kasbiy qarorlarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, o'quvchilarni mustaqil qaror qabul qilishga yo'naltirish tashqi motivatsiyani ichki ishonch bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Natijada kasbiy yo'nalganlik ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va shaxsiy tanlovning o'zaro uyg'unligi asosida shakllanadi.

